| <b>Alikulov Azamat Tuygunovich</b>                                                                                                                                                                                                |     |
| Kichik sanoat zonalarini faoliyatining iqtisodiy-statistik tahlili (Surxondaryo viloyati misolida).....                                                                                                                           | 522 |
| <b>Ozoda Batirovna Sakiyeva</b>                                                                                                                                                                                                   |     |
| Hududlarning innovatsion turistik salohiyatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish .....                                                                                                         | 528 |
| <b>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</b>                                                                                                                                                                                                |     |
| Integrating circular economy principles in marketing and operations of grape export companies for green transition.....                                                                                                           | 534 |
| <b>Usmonova Diyora Mahmud kizi</b>                                                                                                                                                                                                |     |
| Foreign experiences of improving the quality of services in the field of tourism.....                                                                                                                                             | 541 |
| <b>Raxmonov Siyovush Turob ugli</b>                                                                                                                                                                                               |     |
| Z avlodining iste'dodli vakillari uchun raqobat: davlat boshqaruvi sektorining maqsadga yo'naltirilgan raqamli avlodni jalb etish strategiyalari.....                                                                             | 546 |
| <b>Nosirova Shaxzoda Bohodir qizi</b>                                                                                                                                                                                             |     |
| O'zbekiston Respublikasida uglerod solig'ini joriy etish orqali soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va yashil iqtisodiyotga o'tishni jadallashtirish imkoniyatlari: ekologik, iqtisodiy va institutsional yondashuv ..... | 560 |
| <b>Jo'rayev Ahmad Saitnazar o'g'li</b>                                                                                                                                                                                            |     |
| Tijorat banklari reytingiga ta'sir qiluvchi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili.....                                                                                                                                          | 566 |
| <b>Karabayev Nodir Abduhamidovich</b>                                                                                                                                                                                             |     |
| Budjet tashkilotlarida tuziladigan moliyaviy hisobotlarning ahamiyati.....                                                                                                                                                        | 578 |
| <b>Norqulova Qutlug'nigor Oloviddinovna</b>                                                                                                                                                                                       |     |
| Методы и критерии оценки эффективности конкурентоспособности предприятия .....                                                                                                                                                    | 582 |
| <b>Хусейнов Рахим Али оглы</b>                                                                                                                                                                                                    |     |
| Zamonaviy HR texnologiyalarining korxonalar samaradorligiga ta'siri: "O'zbekiston temir yo'llari" AJ tajribasi.....                                                                                                               | 589 |
| <b>Xursanova Gulshan Ravshan qizi</b>                                                                                                                                                                                             |     |
| Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion menejment strategiyalarining samaradorligini oshirish yo'llari .....                                                                                                                       | 593 |
| <b>Pulatova Dildora Abdushukurovna</b>                                                                                                                                                                                            |     |
| Oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llashning bugungi kunda o'rni va ahamiyati.....                                                                                                                                  | 600 |
| <b>Xolmirzayeva Gulruxsor Maxammetovna</b>                                                                                                                                                                                        |     |
| Интеграция информационно-коммуникационных технологий в зеленую экономику: цифровые технологии для устойчивого развития.....                                                                                                       | 604 |
| <b>Бозорова Ирина Жуманазаровна</b>                                                                                                                                                                                               |     |



|                                                                                                                                             |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahalliyashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari ..... | 608 |
| Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich                                                                                                         |     |
| Цифровизация зеленой экономики: синергия технологий для устойчивого будущего .....                                                          | 616 |
| Мухамадиева Кибриё Баходировна, Умарова Надира Рахмановна, Шарипова Зулфия Шокиржоновна, Эшпулатова Хусния Мирғолиб кизи                    |     |
| O'zbekistonda to'qimachilik mahsulotlari bozori va rivojlanishi .....                                                                       | 621 |
| Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna                                                                                                            |     |
| Samarqand viloyatida tikuv-to'qimachilik sanoatining rivojlanish holati va ishlab chiqarish hajmining prognozi.....                         | 629 |
| Ikramova Taxmina Latifovna                                                                                                                  |     |
| Повышение эффективности управления рисками в проектах государственно-частного партнерства в сфере услуг .....                               | 639 |
| Айтбаева Гульзада Куанышбаевна                                                                                                              |     |
| Surxondaryo viloyati iqtisodiy o'sish darajalarini ekonometrik modellashtrish .....                                                         | 645 |
| Pardayeva Ma'rifat Muzaffarovna                                                                                                             |     |
| Зарубежный опыт развития экономики ресурсно-сырьевых регионов: модели диверсификации и возможности адаптации.....                           | 654 |
| Севара Кахрамоновна Хакбердиева                                                                                                             |     |
| Xizmat ko'rsatish sohasida raqobatbardoshlikni oshirishning ahamiyati .....                                                                 | 658 |
| Abduvoxidova Mohinur Akmalovna                                                                                                              |     |
| O'zbekiston sug'urta bozorida esg va yashil moliya instrumentlaridan foydalanish holati va imkoniyatlari.....                               | 662 |
| Zoyirov Laziz Subxonovich                                                                                                                   |     |
| Xorazm viloyatida transport xizmatlari ko'rsatishning amaldagi holati tahlili va uni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari .....         | 668 |
| Sharipova Bibijon Baxtiyorovna                                                                                                              |     |
| Ulgurji savdo qoidalari va chakana savdodan farqli tomonlari .....                                                                          | 678 |
| Batirova Raxima Abdujabbarovna, Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich                                                                         |     |
| Xalqaro integratsiya jarayonlarida raqamli iqtisodiyotning o'rni.....                                                                       | 684 |
| Zaripov Xurshid Zakir o'g'li                                                                                                                |     |
| Mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarining hozirgi holati .....                                                                      | 690 |
| Himmatov Abdisamat Xalilovich                                                                                                               |     |
| Raqamli iqtisodiyot sharoitida aholining moliyaviy madaniyatini rivojlantirish muammolari va istiqbollari.....                              | 696 |
| Abdurazakova Nargiza Rixsibayevna                                                                                                           |     |
| Цели устойчивого развития и роль цифровых платформ в сфере трудовой миграции .....                                                          | 702 |
| Газиёва Сулхия Саидмашрафовна                                                                                                               |     |
| Onlayn savdo maydonchalarida mijoz sodiqligini shakllantirishda marketing strategiyalarining o'rni .....                                    | 706 |
| Baxromov Xudoyor Xabibullo o'g'li                                                                                                           |     |
| Методологические основы оценки эффективности «зеленых» технологий в строительном секторе.....                                               | 710 |
| Тожиева Дилфуза Бабамуратовна                                                                                                               |     |
| Korxonalarda moliyaviy instrumentlar auditi masalalarini rivojlantirish.....                                                                | 715 |
| Mahmudov Saidjamol Kadirjanovich                                                                                                            |     |
| O'zbekiston Respublikasi soliq ma'murchiligini takomillashtirish jarayonlari .....                                                          | 722 |
| Mahmudova Sevara Rahmat qizi, Almardonov Muxammadali Ibragimovich                                                                           |     |
| Improving the efficiency of modern housing fund management system .....                                                                     | 726 |
| D.A. Berdiyeva, Aminova Naima Umar qizi                                                                                                     |     |
| Kichik va o'rta biznes subyektlari eksport salohiyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish .....                                  | 731 |
| Abduqahhorov Azizbek Abdullo o'g'li                                                                                                         |     |



|                                                                                                                                           |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| From Science to Business: How Universities Stimulate Innovation.....                                                                      | 735 |
| <b>A. Bobozhonov, A.M. Shatre, V. Kirilova Vladimirova, R.Kh. Karlibaeva</b>                                                              |     |
| Tashkilotlarda risklarni boshqarish strategiyalarining samaradorligini baholash:<br>nazariy va amaliy yondashuvlar .....                  | 740 |
| <b>Husanova Dilnura Mamrajab qizi</b>                                                                                                     |     |
| Turli mulkchilik shakllaridagi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining ekologik<br>auditining nazariy jihatlarini .....              | 744 |
| <b>Abdullayev Xurshidjon Nazrullo o'g'li</b>                                                                                              |     |
| Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv samaradorligini oshirish omillari.....                                                         | 749 |
| <b>Ne'matullayev Abdurasulxon Ximaydulla o'g'li</b>                                                                                       |     |
| Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida innovatsion korxonalar boshqaruvi tashkiliy-iqtisodiy<br>mexanizmi amal qilish xususiyatlari ..... | 755 |
| <b>Naimov Azamat Xikmatovich</b>                                                                                                          |     |
| Mamlakatimizda chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalalar faoliyatini rivojlantirish.....                                          | 758 |
| <b>Qurbanov Javlonbek Jurabekovich, Shuxratov Azizbek A'zamjon o'g'li</b>                                                                 |     |
| Quritilgan organik mevalar eksportini rivojlantirishda yashil marketing strategiyalaridan<br>foydalanish.....                             | 764 |
| <b>Xidirov Shohrux Bobir o'g'li</b>                                                                                                       |     |
| O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari.....                                                               | 769 |
| <b>Ernazarov Gulam Bekbayevich</b>                                                                                                        |     |
| Kichik biznes subyektlarida innovatsion faoliyatni baholash va rivojlantirish mexanizmlari.....                                           | 774 |
| <b>Mavrulov Ravshan Nematjonovich</b>                                                                                                     |     |
| Barqaror rivojlanish va korxonalarda barqarorlikni ta'minlash zaruriyati.....                                                             | 780 |
| <b>Yakubova Dilfuza</b>                                                                                                                   |     |
| Yashil iqtisodiyot sharoitlarida barqaror rivojlanish, yashil texnologiyalar va ekologik<br>menejmentning o'rni .....                     | 785 |
| <b>Dilmurodov Abbas Anvar o'g'li</b>                                                                                                      |     |
| Qishloq xo'jaligi sohasi faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirish va boshqarish<br>mexanizmlarini takomillashtirish .....           | 788 |
| <b>Tuxtamishev Shodimurod Qurbonboyevich</b>                                                                                              |     |
| Tijorat banklarida chakana bank xizmatlarini rivojlantirish.....                                                                          | 795 |
| <b>Axmedov G'ofurjon G'ulomjonovich</b>                                                                                                   |     |
| Turizm sohasini ekonometrik modelashtirishda qo'llaniladigan ekonometrik usullar<br>va amaliy imkoniyatlar .....                          | 801 |
| <b>Shukurov Ikrom Abdurashitovich</b>                                                                                                     |     |



# TURIZM SOHASINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA QO'LLANILADIGAN EKONOMETRIK USULLAR VA AMALIY IMKONIYATLAR



**Shukurov Ikrom Abdurashitovich**

Qarshi davlat texnika universiteti,

Biznes va boshqaruv kafedrası mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0005-2852-3991

E-mail: [ikromshukurov93@gmail.com](mailto:ikromshukurov93@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turizm sohasining zamonaviy global iqtisodiyotdagi o'rni, uning iqtisodiy o'sishga ta'siri hamda barqaror rivojlanishini ta'minlashda ekonometrik modellashtirishning ahamiyati yoritilgan. Turizmni ekonometrik modellashtirish bo'yicha prognozlash, o'zaro ta'sirni aniqlash, tashqi omillar ta'siri tahlil etish, hududlararo farqlarni o'rganish yo'nalishlaridan keng foydalanilgan. Samarqand viloyati misolida 2016–2025 yillardagi xorijiy turistlar oqimi dinamikasi o'rganilib, pandemiya ta'siri va tiklanish tendensiyalari aniqlangan. Natijalar turizm oqimlari va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasida ijobiy o'zaro bog'liqlik mavjudligini tasdiqladi. Maqola yakunida turizmni barqaror rivojlantirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, marketing siyosatini kuchaytirish va ilmiy innovatsiyalarni tatbiq etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** turizm, ekonometrik modellashtirish, vaqtli qator, regressiya, kointegratsiya, panel ma'lumot, prognozlash, barqaror rivojlanish, Samarqand, turistik oqimlar.

**Abstract:** This article discusses the role of the tourism sector in the modern global economy, its impact on economic growth and the importance of econometric modeling in ensuring its sustainable development. The areas of forecasting, identifying interactions, analyzing the impact of external factors, and studying interregional differences were widely used in econometric modeling of tourism. Using the example of the Samarkand region, the dynamics of foreign tourist flows in 2016–2025 were studied, and the impact of the pandemic and recovery trends were identified. The results confirmed the existence of a positive correlation between tourism flows and macroeconomic indicators. At the end of the article, practical proposals were developed for the sustainable development of tourism, modernization of infrastructure, strengthening marketing policy, and the implementation of scientific innovations.

**Key words:** tourism, econometric modeling, time series, regression, cointegration, panel data, forecasting, sustainable development, Samarkand, tourist flows.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль сферы туризма в современной мировой экономике, ее влияние на экономический рост и значение эконометрического моделирования в обеспечении ее устойчивого развития. В эконометрическом моделировании туризма широко использовались направления прогнозирования, выявления взаимодействий, анализа воздействия внешних факторов и изучения межрегиональных различий. На примере Самаркандской области изучена динамика иностранных туристских потоков в 2016–2025 годах, выявлены влияние пандемии и тенденции восстановления. Результаты подтвердили наличие положительной корреляции между туристскими потоками и макроэкономическими показателями. В конце статьи разработаны практические предложения по устойчивому развитию туризма, модернизации инфраструктуры, усилению маркетинговой политики и внедрению научных инноваций.

**Ключевые слова:** туризм, эконометрическое моделирование, временные ряды, регрессия, коинтеграция, панельные данные, прогнозирование, устойчивое развитие, Самарканд, туристские потоки.



## KIRISH

Turizm — zamonaviy global iqtisodiyotning eng dinamik rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, u nafaqat xalqaro savdo va xizmatlar eksporti hajmini oshiradi, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga, yangi ish o'rinlari yaratishga, infratuzilmani modernizatsiya qilishga va milliy imijni shakllantirishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda turizm sohasi yalpi ichki mahsulot (YAIM) tarkibida muhim ulushni egallab bormoqda va ko'plab davlatlar uchun strategik iqtisodiy yo'nalish sifatida qaralmoqda[1].

Sohani samarali rivojlantirish va istiqboldagi imkoniyatlarini aniq prognozlash jarayonida ekonometrik modellashtirish usullari alohida o'rin tutadi. Chunki turizm - ko'p omilli tizim bo'lib, unda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik va hatto madaniy jarayonlar bir-biriga uzviy bog'langan. Ekonometrik modellar yordamida turistik oqimlarning shakllanishi, tashqi va ichki talabning o'zgarishi, turizm xizmatlari bozorida taklif hajmi, infratuzilma rivojlanishining samaradorligi kabi ko'plab omillarni ilmiy asosda tahlil qilish mumkin.

Bundan tashqari, turizm sohasiga ta'sir etuvchi tashqi omillar - masalan, global iqtisodiy inqirozlar, pandemiyalar, xalqaro siyosiy vaziyatdagi o'zgarishlar, ekologik cheklovlar yoki vizasiz tartiblarning joriy etilishi kabi holatlarning oqibatlarini matematik modellar orqali baholash imkoniyati mavjud. Shu yo'l bilan nafaqat hozirgi holatni chuqur anglash, balki turizmni rivojlantirish bo'yicha strategik qarorlarni asoslash ham mumkin bo'ladi[2].

Ekonometrik usullar yordamida turizm sohasidagi asosiy tendensiyalarni aniqlash, vaqtli qatorlar asosida kelgusidagi prognozlarni shakllantirish, panel ma'lumotlar orqali hududlar kesimida taqqoslashlar olib borish va turizm barqarorligini ta'minlovchi omillarni aniqlash mumkin. Bu esa, o'z navbatida, davlat siyosatini shakllantirish, investitsion loyihalarni rejalashtirish va resurslardan oqilona foydalanishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shu tariqa, turizmni ekonometrik modellashtirish nafaqat ilmiy tahlil vositasi, balki sohaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda, barqarorlikni ta'minlashda va xalqaro maydondagi raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega jarayon hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm sohasini ekonometrik modellashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar, avvalo, turizm oqimlari va ularning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Jahon miqyosida turizm iqtisodiyotning xizmatlar sektori ichida eng tez sur'atlarda rivojlanayotgan tarmoqlardan biri sifatida ko'riladi va u yalpi ichki mahsulot (YAIM), to'lov balansi, investitsiya oqimlari va bandlikka sezilarli ta'sir ko'rsatishi ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan (UNWTO, 2022; Dritsakis, 2004).

Turizm oqimlarini prognozlash borasida vaqtli qatorlar modellashtirish usullari keng qo'llanadi. Masalan, Box–Jenkins ARIMA modellari, GARCH tipidagi volatillik modellaridan foydalanilgan tadqiqotlarda qisqa muddatli prognozlash samarali natijalar bergani ko'rsatilgan. Shu bilan birga, iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarning turizm talabiga ta'sirini o'rganishda ko'p regressiyali modellar va panel ma'lumotlar regressiyalari keng qo'llanadi[3].

Shuningdek, turizm va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash bo'yicha kointegratsiya tahlillari va Granger sabab-oqibat testlari ham muhim o'rin tutadi. Masalan, Eilat va Einav (2004) tadqiqotida turizmning iqtisodiy o'sishdagi hissasi uzoq muddatli barqaror omil sifatida asoslangan. Xuddi shunday, turizm oqimlariga siyosiy barqarorlik, transport infratuzilmasi, viza rejimlari va ekologik omillarning ta'siri ham iqtisodiy-matematik modellar yordamida o'rganilgan (Seetanah, 2011)[4].

So'nggi yillarda pandemiya sharoitida olib borilgan tadqiqotlarda turizmga ta'sir etuvchi favqulodda omillarni baholashda Difference-in-Differences (DiD) va strukturaviy vektor autoregressiya (SVAR) modellaridan ham foydalanilmoqda. Bu esa iqtisodiy zarbalarining turizm sohasi va unga bog'liq sektorlarga ta'sirini aniqlash imkonini beradi (Gössling et al., 2020)[5].

Hududiy darajada turizmni tahlil qilishda panel ma'lumotlar va klaster tahlil usullari ko'plab tadqiqotlarda qo'llanib, turizm rivojlanishining mintaqaviy tafovutlarini, hududlararo resurslardan foydalanish samaradorligini ochib berishga xizmat qilgan. Bunda, masalan, infratuzilma sifati, investitsiya hajmi, transport imkoniyatlari, xizmatlar sektori ulushi kabi omillarni modellashtirish orqali turizm barqarorlik indeksleri ishlab chiqilgan.

O'zbekiston misolida olib borilgan adabiyotlarda (Qodirov, 2020) turizm sohasining YAIMdagi ulushi, xalqaro turistlar oqimi va valyuta tushumlari bo'yicha ekonometrik tahlillar mavjud bo'lib, ular turizmning milliy iqtisodiyotda barqaror daromad manbai sifatida muhimligini asoslab beradi. Shuningdek, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy markazlarda olib borilgan amaliy tadqiqotlarda turizm oqimlarining hududiy iqtisodiyot va ijtimoiy infratuzilma rivojiga bevosita ta'siri ilmiy asosda ko'rsatib o'tilgan[6].



Umuman olganda, adabiyotlarda turizmni ekonometrik modellashirish bo'yicha quyidagi asosiy yo'nalishlar ajralib turadi:

1. Prognozlash - vaqtli qator modellaridan foydalanib turistik oqimlarni qisqa va o'rta muddatda bashorat qilish.
2. O'zaro ta'sirni aniqlash - turizm va iqtisodiy o'sish, bandlik, infratuzilma rivoji o'rtasidagi munosabatlarni kointegratsiya va sabab-oqibat testlari orqali aniqlash.
3. Tashqi omillar ta'siri - siyosiy, ekologik va global shoklarning turizm rivojlanishiga ta'sirini strukturaviy modellar yordamida tahlil qilish.
4. Hududiy tahlil - panel ma'lumotlar asosida hududlararo farqlarni o'rganish, turizm barqarorlik indekslarini ishlab chiqish.

Bu tahlillar shuni ko'rsatadiki, turizmni rivojlantirishda an'anaviy statistik usullar bilan cheklanib bo'lmaydi, balki kompleks ekonometrik modellashirish orqali ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish zarur.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot metodologiyasi turizm sohasining rivojlanish tendensiyalari, xorijiy turistlar oqimi va ularning iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini ekonometrik modellar orqali tahlil qilishga asoslanadi. Metodologik yondashuv bir nechta bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Birinchidan, ma'lumotlar bazasini shakllantirish bosqichi amalga oshiriladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, BMTning Jahon turizm tashkiloti (UNWTO), Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlarning ochiq ma'lumotlaridan foydalaniladi. Ma'lumotlar asosan vaqtli qatorlar (2010–2024-yillar), panel ma'lumotlar (hududlar kesimida) va makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan iborat bo'ladi.

Ikkinchidan, ekonometrik usullar tanlanadi. Turistik oqimlarning dinamikasini o'rganishda vaqtli qator modellaridan (ARIMA, SARIMA, Exponential Smoothing), tashqi omillar ta'sirini aniqlashda ko'p omilli regressiya tahlillari (OLS, GLS), uzoq muddatli bog'lanishlarni baholashda esa kointegratsiya yondashuvlari (Engle–Granger testi, Johansen usuli) qo'llaniladi. Panel ma'lumotlar asosida esa Fixed Effects (FE) va Random Effects (RE) modellari yordamida hududiy tafovutlar aniqlanadi.

Uchinchidan, sabablilik va ta'sirchanlikni tekshirish maqsadida Granger sabab-oqibat testi, VAR va SVAR modellaridan foydalaniladi. Bu yondashuv turizm oqimlari bilan iqtisodiy o'sish, valyuta tushumlari, infratuzilma investitsiyalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi.

To'rtinchidan, turizmga ta'sir etuvchi tashqi shoklarni baholash metodikasi qo'llanadi. Masalan, COVID-19 pandemiyasi, xalqaro siyosiy qarorlar, ekologik cheklovlar va vizasiz tartiblarning joriy etilishi kabi omillarni aniqlash uchun Difference-in-Differences (DiD) va Dummy Variable regressiya modellari ishlatiladi.


Beshinchidan, prognozlash va barqarorlikni baholash bosqichi amalga oshiriladi. Bunda turizm barqarorlik indeksleri (Tourism Sustainability Index) shakllantiriladi, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlar o'zaro bog'langan holda ko'rib chiqiladi. Shuningdek, vaqtli qator modellaridan foydalangan holda qisqa va o'rta muddatli prognozlar ishlab chiqiladi.

Metodologiya doirasida statistik va ekonometrik tahlil uchun Stata, EViews, R va Python dasturlaridan foydalanish rejalashtiriladi. Ushbu dasturlar turli xil testlar (stasionarlik testi, heteroskedastiklik, multikollinearlik va avtokorrelyatsiya sinovlari) yordamida natijalarning ishonchligini tekshirish imkonini beradi.

Umuman olganda, tanlangan metodologik yondashuv turizm sohasini kompleks ravishda o'rganishga, iqtisodiy, siyosiy va ekologik omillarning ta'sirini ilmiy asosda baholashga, shuningdek, samarali prognozlar va boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.


## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari turizm sohasini ekonometrik modellashirish samaradorligini tasdiqladi. Avvalo, vaqtli qatorlar asosida olib borilgan tahlillar xorijiy turistlar oqimlarida aniq davriy tebranishlar va trend yo'nalishlarini ko'rsatdi. Xususan, Samarqand viloyatiga 2016–2019-yillarda xorijiy turistlar sonining barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilgan bo'lsa, 2020 yilda pandemiya sharoitida keskin pasayish sodir bo'ldi. Bu holat global shoklarning turizm oqimlariga sezgirligini va tashqi omillarning keskin ta'sir kuchini namoyon etdi. Keyingi yillarda (2021–2025) turistlar oqimining tezkor tiklanishi esa turizm infratuzilmasining jozibadorligi va hududning tarixiy-madaniy meros salohiyati yuqoriligini ko'rsatdi.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan chet el fuqarolarining turistik safarlari soni (ming safar)[7]

2025-yil yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarda kelgan xorijiy davlatlar fuqarolarining umumiy safarlari soni 5 256,2 mingtani tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 1 725,4 mingtaga ortgan. So'nggi besh yillikda O'zbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarda kelgan xorijiy davlatlar fuqarolarining soni o'sib bormoqda.



2-rasm. Turistik safarlar sonining maqsadlar bo'yicha taqsimlanishi (ming safar)



2025-yilning I yarim yilligida qarindoshlarni yo'qlash maqsadida amalga oshirilgan kiruvchi safarlar soni 3 596,8 mingtani (ya'ni O'zbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarda tashrif buyurgan chet el fuqarolari safarlarining umumiy sonidan 68,4 % i) tashkil etgan, 2024-yilning shu davriga nisbatan 805,7 mingtaga ortgan. Xizmat safarlari soni 594,0 mingtani tashkil etib, 512,8 mingtaga (7 barobar) ortgan. Bo'sh vaqtni o'tkazish va dam olish maqsadidagi turistik safarlar soni 783,7 mingtani tashkil etib, 255,1 mingtaga (48,3 %) ortgan, Tijorat maqsadidagi safarlar 223,6 mingtani tashkil etib, 158,6 mingtaga (3,4 barobar) oshgan. Davolanish maqsadidagi safarlar 48,6 mingtani tashkil etib, 8,3 mingtaga (14,6 %) kamaygan. O'qish maqsadidagi safarlar 9,5 mingtani tashkil etib, 1,4 mingtaga (17,3 %) ortgan.

Regressiya modellari natijalari turistik oqimlar shakllanishida bir nechta omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini aniqlaydi. Jumladan, valyuta kursining barqarorligi, transport infratuzilmasi rivojlanganligi, xalqaro marketing faoliyati hamda vizasiz tartiblarning joriy etilishi xorijiy turistlar soniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, siyosiy barqarorlik va hududiy xavfsizlik omillari ham turistlarning qaror qabul qilishida asosiy determinant sifatida qayd etadi.

Panel ma'lumotlar tahlili asosida turizm rivojlanishining hududiy tafovutlari ham aniqlangan. Natijalarga ko'ra, Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyatlarida turizmning iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasi yuqori bo'lsa, ayrim chekka hududlarda infratuzilma yetishmovchiligi sababli turizm oqimlari sustroq rivojlanmoqda. Bu esa hududiy barqarorlikni ta'minlash uchun differensial yondashuvni talab etishini ko'rsatadi.

Kointegratsiya tahlillari turizm oqimlari va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar (YAIM, bandlik, investitsiya hajmi) o'rtasida uzoq muddatli bog'lanish mavjudligini tasdiqlaydi. Granger sabab-oqibat testlari esa turizm nafaqat iqtisodiy o'sishning natijasi, balki uning muhim drayveri ekanini isbotlaydi. Bu natija xalqaro ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan xulosalar bilan uyg'unlikda bo'lib, O'zbekiston misolida ham turizm sektorining strategik ahamiyatini ko'rsatadi.

Shuningdek, pandemiya davri va undan keyingi yillarda turizm sohasiga ta'sir qilgan shok omillarini baholashda qo'llanilgan Difference-in-Differences (DiD) modellari turizm oqimlarining tiklanishi davlat tomonidan ko'rilgan qo'llab-quvvatlash choralariga (soliq imtiyozlari, investitsiya dasturlari, turizm infratuzilmasiga qaratilgan mablag'lar) sezilarli darajada bog'liq bo'lganini ko'rsatadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, turizmni rivojlantirish bo'yicha siyosiy qarorlar va iqtisodiy strategiyalarni ishlab chiqishda oddiy statistik yondashuv bilan cheklanib bo'lmaydi. Buning o'rniga, kompleks ekonometrik modellashtrish orqali turizm sohasining zamonaviy global iqtisodiy tizimdagi rolini to'liq baholash, tashqi va ichki omillar ta'sirini ilmiy asosda aniqlash va prognozlash zarur.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarni beradi:

- turizm oqimlari va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasida barqaror va ikki tomonlama bog'liqlik mavjud;
- global shoklar (pandemiyalar, siyosiy qarorlar) turizm sohasiga keskin ta'sir etadi, biroq infratuzilma va marketing siyosatining kuchli bo'lishi tiklanish jarayonini tezlashtiradi;
- hududlar kesimida differensial rivojlanish kuzatiladi, bu esa regionlararo muvozanatli turizm siyosatini ishlab chiqishni taqozo etadi;
- prognozlash natijalari turizm sohasining yaqin yillarda barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda, ammo tashqi risk omillarini inobatga olish zarur.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, turizm sohasi zamonaviy global iqtisodiyotda eng tez rivojlanayotgan va yuqori iqtisodiy samaradorlik beruvchi tarmoqlardan biridir. Ekonometrik modellashtrish natijalari turizm oqimlarining barqaror o'sish tendensiyasi, ular bilan YAIM, bandlik, investitsiyalar va infratuzilma rivojlanishi o'rtasida yaqin o'zaro bog'liqlik mavjudligini tasdiqladi. Xususan, Samarqand viloyati misolida olib borilgan tahlillar 2016–2025-yillarda xorijiy turistlar oqimining izchil o'sishini, 2020 yilda pandemiya ta'sirida keskin pasayishini va 2021-yildan boshlab tezkor tiklanishini aniq ko'rsatdi. Bu holat turizmning tashqi iqtisodiy va siyosiy shoklarga sezgiriligini, biroq infratuzilma va marketing siyosati mavjud bo'lganda tiklanish salohiyati yuqori ekanini namoyon etdi.

Ekonometrik tahlillarda regressiya, kointegratsiya va sabab-oqibat testlari yordamida aniqlanganidek, turizm nafaqat iqtisodiy o'sishning oqibati, balki uning asosiy drayverlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Turistik oqimlarni oshirish bo'yicha siyosiy qarorlar (viza tartibining yengillashuvi, marketing strategiyalari, xalqaro hamkorlik dasturlari) iqtisodiyotga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu asosda quyidagi takliflar ishlab chiqildi. Turizmni milliy iqtisodiyotning strategik sektori sifatida belgilab, uzoq muddatli rivojlanish dasturlarida ustuvor yo'nalish sifatida kiritish zarur. Viza siyosatini yanada soddalashtirish va "ochiq eshiklar" tamoyiliga asoslangan xalqaro turizmni rag'batlantirish zarur. Transport, mehmonxona, logistika va servis xizmatlarini xalqaro standartlarga mos ravishda modernizatsiya qilish,



Samarqand, Buxoro, Xiva kabi yirik turistik markazlarni chekka hududlar bilan bog'lovchi transport infratuzilmasini kuchaytirish orqali hududiy nomutanosibliklarni kamaytirish zarur. O'zbekistonning turizm brendini xalqaro miqyosda faol targ'ib qilish, raqamli marketing vositalaridan keng foydalanish kata foyda beradi. Samarqand viloyati va boshqa tarixiy markazlarning jahon miqyosidagi nufuzini oshirish maqsadida xalqaro ko'rgazmalar, festivallar va madaniy tadbirlarni tizimli ravishda tashkil etish ham ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Ekologik muvozanatni saqlash, turizmning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish va yashil infratuzilma loyihalarini rivojlantirish, mahalliy aholining turizm jarayonlariga faol jalb etilishini ta'minlash orqali ijtimoiy barqarorlikni kuchaytirish zarur.

Umuman olganda, turizmni ekonometrik modellashirish asosida olingan natijalar mamlakatimizda ushbu sohani barqaror rivojlantirish, raqobatbardoshligini oshirish va global turizm bozorida o'z o'rnini mustahkamlash uchun ilmiy asoslangan qarorlar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-dekabrda "Samarqand viloyatining turizm va transport salohiyatidan samarali foydalanish, viloyatni "Samarqand — Yangi O'zbekistonning turizm darvozasi" konsepsiyasi asosida rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-455-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi "2025-2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-sonli Farmoni.
3. Haiyan Song, Richard T.R. Qiu, Jinah Park. A review of research on tourism demand forecasting: Launching the Annals of Tourism Research Curated Collection on tourism demand forecasting. <https://doi.org/10.1016/j.annals.2018.12.001>.
4. Yair Eilat & Liran Einav. Determinants of international tourism: a three-dimensional panel data analysis. Applied Economics: Vol 36, No 12 - Get Access.
5. [Stefan Gössling](https://www.researchgate.net/publication/340940873_Pandemics_tourism_and_global_change_a_rapid_assessment_of_COVID-19), Daniel Scott, Colin Michael Hall. Pandemics, tourism and global change: a rapid assessment of COVID-19. Journal of Sustainable Tourism. April 2020 29(5). [https://www.researchgate.net/publication/340940873\\_Pandemics\\_tourism\\_and\\_global\\_change\\_a\\_rapid\\_assessment\\_of\\_COVID-19](https://www.researchgate.net/publication/340940873_Pandemics_tourism_and_global_change_a_rapid_assessment_of_COVID-19).
6. [Qodirov, A., Urakova, D., Amonov, M., Masharipova, M., Ibadullaev, E., Xolmurotov, F., & Matkarimov, F. \(2024\). The Dynamics of Tourism, Economic Growth, and CO2 Emissions in Uzbekistan: An ARDL Approach. International Journal of Energy Economics and Policy, 14\(6\), 365–370. https://doi.org/10.32479/ijep.16591](https://doi.org/10.32479/ijep.16591)
7. [stat.uz/uz/?preview=1&option=com\\_dropfiles&format=&task=frontfile\\_download&catid=536&id=3892&Itemid=10000000000000](https://stat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile_download&catid=536&id=3892&Itemid=10000000000000)



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 9**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---